

**BOSHLANG'ICH SINIF "O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA SHE'RIY
MATNLAR BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK-METODIK ASOSLARI
(2-SINF DARSLIGI MISOLIDA)**

Ismatova Madinabonu Dilshod qizi

Osiyo xalqaro universiteti 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20688392>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda "O'qish savodxonligi" darslarida she'riy matnlar bilan ishlashning pedagogik va uslubiy asoslari, xususan, 2-sinf darsliklari misolida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot o'quvchilarning o'qish, og'zaki nutqi, ifodali o'qish qobiliyati, tasavvur va estetik tafakkurini rivojlantirishda she'riyatning ahamiyatini ko'rsatadi. Dars jarayonida she'riy matnlarni tahlil qilish va izohlashda qo'llaniladigan o'qitishning samarali usullari, interfaol yondashuvlari, didaktik tamoyillarga alohida e'tibor beriladi. Maqolada 2-sinf darsliklariga kiritilgan she'rlarning mazmuni va tuzilishi ham tahlil qilinib, she'rga asoslangan topshiriqlar orqali o'quvchilarning idrok etishi, so'z boyligi, mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish yo'llari tushuntirilgan. Tadqiqotda o'quvchilarga yo'naltirilgan darslarni tashkil etish va ijobiy o'qish muhitini yaratishda o'qituvchilarning roli alohida ta'kidlangan. She'riy matnlar orqali o'qish savodxonligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, she'riy matnlar, boshlang'ich ta'lim, 2-sinf darsliklari, ifodali o'qish, o'qitish usullari, pedagogik asoslar, metodika, o'quvchilarning tushunishi, interfaol ta'lim.

Annotation. This article examines the pedagogical and methodological foundations of working with poetic texts in "Reading Literacy" lessons in primary grades, particularly on the example of 2nd grade textbooks. The study highlights the importance of poetry in developing pupils' reading skills, oral speech, expressive reading abilities, imagination, and aesthetic thinking. Special attention is given to effective teaching methods, interactive approaches, and didactic principles used in the analysis and interpretation of poetic texts during classroom activities. The article also analyzes the content and structure of poems included in 2nd grade textbooks and explains ways of improving pupils' comprehension, vocabulary, and independent thinking through poetry-based tasks. The research emphasizes the role of teachers in organizing learner-centered lessons and creating a positive reading environment. Practical recommendations for enhancing reading literacy through poetic texts are provided.

Keywords: reading literacy, poetic texts, primary education, 2nd grade textbooks, expressive reading, teaching methods, pedagogical foundations, methodology, pupils' comprehension, interactive learning.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические и методические основы работы с поэтическими текстами на уроках «Чтение и грамотность» в начальных классах, в частности, на примере учебников для 2-го класса. Исследование показывает важность поэзии в развитии у учащихся навыков чтения, устной речи, выразительного чтения, воображения и эстетического мышления.

Особое внимание уделяется эффективным методам обучения, интерактивным подходам и дидактическим принципам, используемым при анализе и интерпретации поэтических текстов в процессе урока. В статье также анализируется содержание и структура стихотворений, включенных в учебники для 2-го класса, и объясняются способы улучшения восприятия, словарного запаса и самостоятельного мышления учащихся посредством заданий на основе поэзии. В исследовании подчеркивается роль учителей в организации ориентированных на ученика уроков и создании позитивной учебной среды.

Даны практические рекомендации по повышению уровня чтения и грамотности посредством работы с поэтическими текстами.

Ключевые слова: грамотность чтения, поэтические тексты, начальное образование, учебники для 2-го класса, экспрессивное чтение, методы обучения, педагогические основы, методология, понимание учащимися материала, интерактивное обучение.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirish, ularda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, so'nggi yillarda joriy etilgan yangi avlod „O'qish savodxonligi“ darsliklari nafaqat texnik o'qishni, balki matnni chuqur anglash, uning mag'zini chaqish va tahlil qilish mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining ma'naviy-intellektual dunyosini boyitishda, estetik didini o'stirishda va til boyligini oshirishda she'riy matnlarning o'rni beqiyosdir. She'r o'zining musiqiyliigi, emotsionalligi va obrazlilikiga bilan bolaning hissiyotlariga tez ta'sir ko'rsatadi. Biroq, boshlang'ich sinf o'quvchilariga she'riy asarlarni shunchaki yod oldirish emas, balki ularning badiiy mohiyatini yetkazish, pinhona ma'nolarini anglatish pedagogik-metodik jihatdan o'ziga xos yondashuvni talab etadi.

Amaliyotda ko'pincha she'riy matnlar bilan ishlashda bir yoqlamalikka yo'l qo'yiladi: she'r mazmuni oddiy nasriy matndek qayta so'zlatiladi yoki o'quvchidan faqat mexanik yodlash talab qilinadi. Bu esa bolaning she'riyatga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi va uning ohangdorligini, badiiy bo'yoqlarini his qilishiga to'sqinlik qiladi. Ayniqsa, 2-sinf darsliklaridagi she'riy matnlar bilan ishlashda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, an'anaviy metodlardan voz kechib, yangicha pedagogik texnologiyalarni qo'llash ehtiyoji mavjud.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — 2-sinf „O'qish savodxonligi“ darsliklarida berilgan she'riy matnlarning pedagogik-metodik asoslarini ochib berish, dars jarayonida o'quvchilarning badiiy tafakkuri va nutq boyligini oshirishga xizmat qiladigan samarali metod hamda usullarni ishlab chiqish va tahlil qilishdan iborat.

Vazifalari:

- Boshlang'ich sinf darsliklaridagi she'riy matnlarning o'ziga xos janr xususiyatlarini pedagogik nuqtayi nazardan o'rganish;

- 2-sinf „O'qish savodxonligi“ darsligidagi she'rlar misolida o'quvchilarning matnni idrok etish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini tizimlashtirish;

• She'riyat darslarida o'quvchilarning ijodiy faolligini oshiruvchi innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Boshlang'ich sinflarda she'riy matnlar ustida ishlash shunchaki o'qish texnikasini shakllantirish emas, balki bolaning emotsional intellektini va estetik idrokini rivojlantirish jarayonidir. Pedagog olimlardan K.Qosimova, S.Matchonovlar ta'kidlaganidek, she'r o'quvchi qalbida go'zallikka muhabbat uyg'otish, so'zning badiiy quvvatini his ettirish vositasidir. Biroq zamonaviy xalqaro tadqiqotlar (masalan, PIRLS) va yangilangan milliy o'quv dasturlari talablari shuni ko'rsatadiki, bugungi kun maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchidan matn ichidagi yashirin ma'nolarni topish, muallif maqsadini tushunish va xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi ko'nikmalarni (high-order thinking skills) talab etmoqda.

2-sinf „O'qish savodxonligi“ darsliklarining o'ziga xosligi shundaki, ulardagi she'riy matnlar bolaning yosh xususiyatiga mos ravishda sodda, obrazli va qisqa satrlardan tashkil topgan.

Ammo shu soddalik ortida o'quvchini mushohada yuritishga undaydigan pedagogik vazifalar yotadi.

Tahlil va natijalar. 2-sinf darsligidagi she'riy matnlarni o'qitishda an'anaviy „yod ol va mazmunini aytib ber“ metodikasi o'quvchida kreativlikni bo'g'ib qo'yadi. Ushbu jarayonni uchta asosiy bosqichga bo'lib tashkil etish kutilgan pedagogik samarani beradi:

1. She'rning ohangdorligini his qilish (Akustik bosqich). O'qituvchining ifodali o'qishi yoki audioresurslardan foydalanish orqali bolada dastlabki emotsional hissiyot uyg'otiladi.

2. So'z birikmalari va tasviriy vositalar tahlili (Semantik bosqich). She'rdagi o'xshatishlar, jonlantirishlar bolaga tushuntiriladi.

3. Ijodiy va tanqidiy yondashuv (Konseptual bosqich). O'quvchi she'rdagi qahramon o'rniga o'zini qo'yib ko'radi, rasm chizadi yoki kichik ijodiy topshiriqlarni bajarish

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligi darslaridagi she'riy matnlarga oid tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, tizimli, qiyosiy va kompleks yondashuvlarga asoslanadi. Tadqiqotda ta'lim nazariyalari, pedagogik psixologiya prinsiplari va didaktikaning zamonaviy yutuqlari sintez qilinadi. Tadqiqot 2-sinf „O'qish savodxonligi“ misolida olib boriladi. 2-sinf „O'qish savodxonligi“ darsliklarining o'ziga xosligi shundaki, ulardagi she'riy matnlar bolaning yosh xususiyatiga mos ravishda sodda, obrazli va qisqa satrlardan tashkil topgan. Ammo shu soddalik ortida o'quvchini mushohada yuritishga undaydigan pedagogik vazifalar yotadi.

2-sinf darsliklaridagi she'riy matnlarni o'qitishda an'anaviy „yod ol va mazmunini aytib ber“ metodikasi o'quvchida kreativlikni bo'g'ib qo'yishi sababli, biz tadqiqotimiz doirasida dars samaradorligini oshiruvchi hamda nutqiy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi „She'riy matn ustida ishlashning innovatsion zanjiri“ modelini ishlab chiqdik.

She'riy matn ustida ishlashning innovatsion zanjiri:

[Akustik bosqich] ----> [Semantik bosqich] ----> [Konseptual bosqich]

(Audio/Ifodali o'qish) (So'z va badiiy tahlil) (Interaktiv metod/PIRLS)

Ushbu uch bosqichli innovatsion zanjirning pedagogik va metodik mohiyati quyidagicha izohlanadi:

1. Akustik bosqich (Audio / Ifodali o‘qish): Bu bosqich — she‘r bilan dastlabki tanishuv va o‘quvchida emotsional rezonans (hissiy yaqinlik) uyg‘otish davridir. O‘qituvchining yuksak mahorat bilan, to‘g‘ri urg‘u va pauzalar yordamida ifodali o‘qib berishi yoki darslikning multimediali ilovalaridan professional audioni tinglatish orqali bolada she‘rning musiqiyli va ritmini idrok etish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

2. Semantik bosqich (So‘z va badiiy tahlil): Bu bosqichda matnning til xususiyatlari, lug‘at boyligi va undagi yashirin ma‘no qatlamlari ochiladi. She‘r tarkibidagi tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar ustida lug‘at ishi olib boriladi, ko‘chma ma‘noli so‘zlar, o‘xshatish va jonlantirishlarning badiiy quvvati o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

3. Konseptual bosqich (Interaktiv metod / PIRLS): Bu zanjirning yakuniy va kreativ bosqichi bo‘lib, o‘quvchi matndan olgan bilimi va hissiyotini umumlashtirib, o‘zining shaxsiy xulosasini yaratadi. Bunda an‘anaviy savollar o‘rniga „Sinkveyn“, „Klaster“ kabi interaktiv metodlar hamda xalqaro PIRLS baholash dasturi talablariga mos muammoli (ochiq) topshiriqlar joriy etiladi.

Mazkur innovatsion zanjir boshlang‘ich sinf o‘quvchisining she‘rni tinglash (akustik), tushunish (semantik) va fikr bildirish (konseptual) kabi nutqiy va intellektual faoliyat turlarini yaxlit tizimda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu metodik zanjirni dars jarayoniga to‘g‘ri tatbiq etish uchun, avvalo, darslikdagi materiallarning mavzu ko‘lamini aniq belgilab olish zarur. Shu sababli

2-sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda yangi avlod „O‘qish savodxonligi“ darsliklarining barcha qismlariga kiritilgan she‘riy matnlarning o‘rni beqiyosdir. Biz tadqiqotimiz davomida darslikning 1, 2, 3 va 4-qismlarida jamlangan jami she‘riy asarlarni mazmun-mohiyati va pedagogik yo‘nalishiga ko‘ra tahlil qilib, ularni quyidagi tizimli guruhlariga ajratishni lozim topdik:

1. Vatanga muhabbat va milliy qadriyatlar mavzusidagi she‘rlar

Ushbu turkumdagi she‘rlar o‘quvchilarda vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi:

- „Vatan ostonadan boshlanadi“ (I qism, 2-dars)
- „Toshkent – O‘zbekiston poytaxti“ (I qism, 5-dars)
- „Bayramlari ko‘p yurtim“, „Dalalarda Navro‘z“ (III qism, 7-mavzu)
- „Til – millat ko‘zgusi“ (I qism, 8-dars)
- „G‘ururimsan, ona tilim!“ (IV qism, 5-dars)

2. Tabiat, fasllar va ekologiya mavzusidagi she‘rlar

O‘quvchilarda atrof-muhitga g‘amxo‘rlik qilish, tabiat go‘zalliklarini his etish va ekologik madaniyatni tarbiyalovchi she‘rlar:

- „Serquyosh o‘lka“ (I qism, 6-dars)
- „Qish zavqi“ (II qism, 3-mavzu)
- „Ko‘klamjon“, „Zumrad bahor“ (II qism, 4-mavzu)

- „Oltin kuz” (II qism, 6-mavzu)
- „Suv – aziz ne’mat” (IV qism, 1-dars)
- „Yo’ldagi suhbatlar” (IV qism, 3-dars)

3. Mehnat va kasb-hunar mavzusidagi she’rlar

Mehnatsevarlikni ulug’laydigan va turli kasblarga bo’lgan qiziqishni uyg’otadigan she’rlar:

- „Ishlagan charchaydi” (II qism, 2-mavzu)
- „Kasb ko’p, xullasi kalom...” (II qism, 6-mavzu)
- „Arining maqtovi” (III qism, 7-mavzu – masal/she’riy shakl)

4. Ilm-ma’rifat va tarixiy xotira mavzusidagi she’rlar

O’quvchilarni ilm olishga undaydigan, buyuk ajdodlarimiz va tarixga hurmat hissini shakllantiruvchi matnlar:

- „Ilm – yorug’lik” (I qism, 7-dars)
- „Mirzo Ulug’bek” (III qism, 3-mavzu)
- „Millatfloat manfaatini o’ylagan zotlar...” (III qism, 6-mavzu)

5. Do’stlik, oila va odob-ahloq mavzusidagi she’rlar

Ijtimoiy munosabatlar, do’stga sadoqat, oilaviy qadriyatlar va nutq madaniyatini o’rgatuvchi she’riy asarlar:

- „Oila – muqaddas qo’rg’on” (III qism, 1-mavzu)
- „Yovlashmoq – oson, yarashmoq – qiyin” (IV qism, 3-dars)
- „Do’st har vaqtda qo’llaydi” (IV qism, 6-dars)
- „Avval o’yla, keyin so’yla” (IV qism, 3-dars)

6. Sog’lik, gigiyena va adabiy ertaklar (boshqa mavzular)

Sog’lom turmush tarzi va bolalar fantaziyasini boyitishga qaratilgan she’riy matnlar:

- „Grippalijon, Grippali!” (II qism, 1-mavzu)
- „Tozalik asli – Bilsang, gul fasli...” (II qism, 4-mavzu)
- „Hayvonlar keldi har yondan” (III qism, 6-mavzu – she’riy ertak)

Tahlilidan ko’rinib turibdiki, yangi avlod darsliklaridagi har bir she’riy matn zamonaviy yondashuvlar (STEAM, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim va mantiqiy fikrlash) asosida o’quvchining ham ma’naviy, ham intellektual dunyosini muvozanatda rivojlantirishga qaratilgan amaliy xarakterga egadir.

She’riy matnlar ustida ishlashning amaliy-metodik modeli (Aniq misol tahlili). 2-sinf „O’qish savodxonligi” darsligidagi she’riy matnlarni shunchaki o’qib berish yoki yodlatish kutilgan pedagogik samarani bermaydi. Yuqorida aytib o’tilgan uch bosqichli (akustik, semantik va konseptual) modelni amaliyotda ko’rsatish uchun darslikning IV qismidagi Zahro Hasanovaning „Suv – aziz ne’mat” she’ri ustida ishlash jarayonini ko’rib chiqamiz:

1-bosqich: Akustik (Eshitish va his qilish). O’qituvchi she’rni baland ovozda, ifodali va ma’noli o’qib beradi. Orqa fonda mayin oqayotgan suv yoki yomg’ir tovushi (audio) qo’yib qo’yilishi o’quvchida emotsional hissiyot uyg’otadi va diqqatni jamlaydi.

2-bosqich: Semantik (Matn va so’z tahlili). She’r tarkibidagi tushunilishi qiyin bo’lgan so’zlar va badiiy tasvir vositalari tahlil qilinadi.

Masalan, suvsizlikdan chanqagan yer yoki o‘simliklarning holati haqidagi satrlar o‘qilganda, o‘quvchilarga „Suv nega hayot manbayi deb hisoblanadi?“ degan savol bilan murojaat qilinadi.

3-bosqich: Konseptual (Ijodiy va interaktiv yondashuv). Bu bosqichda dars samaradorligini oshirish uchun „Sinkveyn“ (Besh satrli she‘r) metodi qo‘llaniladi. O‘quvchilar mustaqil ravishda quyidagi sxema bo‘yicha o‘z fikrlarini jamlaydilar:

1. Ot (Mavzu): Suv.
2. Sifat (2 ta): Shaffof, shirin (tiriklik manbayi).
3. Fe‘l (3 ta): Oqadi, hayot beradi, yashnatadi.
4. To‘rt so‘zli gap: Suvni asrab-avaylashimiz shart.
5. Sinonim (Xulosa): Ne‘mat (yoki Hayot).

Ushbu amaliy yondashuv o‘quvchining darsda shunchaki tinglovchi emas, balki faol ijodkor sifatida ishtirok etishini ta‘minlaydi.

She‘riy matnlar tahlilida PIRLS xalqaro baholash tizimi talablarini qo‘llash. Zamonaviy „O‘qish savodxonligi“ darsliklarining tub mohiyati o‘quvchilarni xalqaro baholash mezonlariga tayyorlashga qaratilgan. 2-sinf darsligidagi she‘riy matnlar yakunida berilgan savollar tizimini shunday shakllantirish kerakki, u o‘quvchidan matnning turli qatlamlarini ochishni talab qilsin.

She‘riy matnlar tahlilida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholashning quyidagi to‘rt darajasini joriy etish samaraliroq bo‘ladi:

1. Aniq ko‘rinib turgan ma‘lumotlarni topish (Lokal daraja): She‘r matnida bevosita yozib qo‘yilgan faktlarni so‘rash. Masalan: „Suv – aziz ne‘mat“ she‘rida suv nimalarga hayot bag‘ishlashi aytilgan?

2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish (Integratsion daraja): She‘r satrlari orasidagi bog‘liqlikni topish. Masalan: „Yovlashmoq – oson, yarashmoq – qiyin“ she‘riy hikoyasida ikki o‘rtoqning urishib qolishiga nima sabab bo‘ldi va ular qanday oqibatga duch kelishdi?

3. Matn mazmunini talqin qilish va integratsiyalash (Global daraja): Muallifning asosiy g‘oyasini va she‘rning umumiy pafosini aniqlash. Masalan: „Avval o‘yla, keyin so‘yla“ she‘ri orqali shoir bolalarga qanday nasihat bermoqchi?

4. Matn shakli va elementlarini baholash (Kritik daraja): She‘rdagi badiiy vositalar va so‘z o‘yinlariga munosabat bildirish. Masalan: „Grippalijon, Grippali!“ she‘rida kasallikning bu tarzda nomlanishi va unga jonli obraz sifatida qaralishi sizda qanday taassurot qoldirdi?

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda “O‘qish savodxonligi” darslarida she‘riy matnlar bilan ishlash o‘quvchilarning intellektual, hissiy, axloqiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. She‘riyat bolalarning so‘z boyligini boyitish, ravon va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, tasavvurini yaxshilash, estetik didni tarbiyalashga yordam beradi. She‘rlar orqali o‘quvchilar so‘z va adabiy obrazlarning ma‘nosini anglabgina qolmay, balki o‘z fikr va his-tuyg‘ularini yanada aniq va ijodiy ifodalashga o‘rganadilar.

She‘riy matnlarni o‘qitishning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan pedagogik va uslubiy yondashuvlarga bog‘liq.

Zamonaviy interfaol usullar, ifodali o‘qish, rolli o‘yinlar, savol-javoblar, ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning she‘riyatga qiziqishini oshirib, darslarni yanada qiziqarli va mazmunli qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchi she‘riy asarlarni tanlash va tahlil qilishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, o‘qish qobiliyatini va hissiy idrokini hisobga olishi kerak.

2-sinf “O‘qish savodxonligi” darsliklari tahlili shuni ko‘rsatadiki, she‘riy matnlardan o‘qishni tushunish, og‘zaki nutqni rivojlantirish, mustaqil fikrlash, axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda keng foydalaniladi. Darsliklarga kiritilgan she‘rlar o‘quvchilarni tabiatni qadrlash, milliy an‘analarni e‘zozlash, o‘z Vataniga muhabbat, mehr-oqibat, do‘stlik ko‘rsatishga undaydi.

Demak, she‘riyat nafaqat lingvistik manba, balki ta‘sirchan tarbiya vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, she‘riy matnlar bilan tizimli ishlash yosh o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyati va adabiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. She‘riyat darslari samarali va ijodiy tashkil etilsa, o‘quvchilar o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lib, adabiyotga, o‘qishga doimiy qiziqish uyg‘otadi.

Demak, boshlang‘ich sinflarda “O‘qish savodxonligi” darslarida she‘riy matnlar bilan ishlashning pedagogik va uslubiy asoslari ta‘lim sifatini oshirish, barkamol, tafakkurli, ma‘naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi. Umumiy o‘rta ta‘limning milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2021.
2. Abdullayeva Q., va boshqalar. O‘qish savodxonligi: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2023.
3. G‘afforova SH., Nurullayeva SH. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarida she‘riy matnlarni tahlil qilish metodikasi. // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2022. - №4.
4. Matchonov S. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tahlil qilishning pedagogik-metodik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
5. Mavlonova K. Boshlang‘ich sinf „O‘qish savodxonligi“ darslarida matn ustida ishlash tizimi. // Xalq ta‘limi. – Toshkent, 2023. - №2.
6. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Sariyev SH. Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2022.
7. PIRLS 2021 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). – Boston College, 2020.
8. Yusupova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy tafakkurini shakllantirishda she‘riyatning o‘rni. // Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar* – Buxoro, 2024. - №5.